

TADBIRKORLIK SEKTORI TARKIBIY TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Xayitova Rushana

Termiz davlat pedagogika instituti
“Ta’lim sifati nazorat qilish” bo‘limi
bosh mutaxassisi

ORCID: 0009-0002-6081-0008

Annotatsiya

Mazkur maqolada tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishning metodologik jihatlari tahlil qilingan. Tizimli, institutsional va innovatsion yondashuvlar asosida tarkibiy o‘zgarishlarni baholash usullari yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish, raqamli transformatsiya va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalari iqtisodiyotda barqaror o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlashda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, tadbirkorlik sektori, tarkibiy tuzilma, tarmoq va sohalar.

Аннотация

В данной статье анализируются методологические аспекты совершенствования структурной структуры бизнес-сектора. Подчеркиваются методы оценки структурных изменений, основанные на системном, институциональном и инновационном подходах. Также обосновывается важность диверсификации бизнеса, цифровой трансформации и механизмов финансовой поддержки. Результаты исследования имеют научное и практическое значение для обеспечения устойчивого роста и конкурентоспособности экономики.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, устойчивый рост национальной экономики, бизнес-сектор, структурная структура, промышленность и отрасли.

Abstract

This article analyzes the methodological aspects of improving the structural structure of the business sector. Methods of assessing structural changes based on systematic, institutional and innovative approaches are highlighted. Also, the importance of business diversification, digital transformation and financial support mechanisms is based. The results of the research are of scientific and practical importance in ensuring sustainable growth and competitiveness in the economy.

Keywords: entrepreneurship, small business, sustainable growth of the national economy, business sector, structural structure, industry and sectors.

KIRISH

Mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda tadbirkorlik, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanganlik darajasi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlik, keng ma'noda, shaxsiy manfaatga asoslangan, subyekt oldida turgan maqsadga erishishga qaratilgan, uning bevosita ishtirokida o'zining shaxsiy omillariga asoslanib, amalga oshiriladigan, oila xo'jaligini yuritishdan tortib, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xamda xizmatlar ko'rsatishgacha bo'lgan yumushlar bilan bog'lik aqliy faoliyat sifatida qaraladi. Tor ma'noda, tadbirkorlik faoliyati faqat iqtisodiy sohaning turli-tuman darajalaridagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni sohibkorlikni ifodalaydi [1].

Mustaqillik yillarining ilk kunlaridan boshlab, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada bir qator qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari va boshqa sohani rivojlantirishga oid bir qator me'yoriy -huquqiy hujjatlar qabul qilinib, tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda tadbirkorlik sektori muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida namoyon bo'lib, ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va ichki bozorni diversifikatsiya qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasi deganda, uning tarmoqlar, hududlar, tashkiliy-huquqiy shakllar va faoliyat turlari kesimidagi nisbatlari tushuniladi. Mazkur tuzilma iqtisodiyotning samaradorligi va barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar tarkibiy mutanosiblik ta'minlanmasa, iqtisodiyotda disbalanslar yuzaga keladi, resurslar samarasiz taqsimlanadi va iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayadi. Shuning uchun tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish metodologik jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, uning nazariy va metodologik asoslari bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Xususan, tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishga ta'siri, uning tarkibiy xususiyatlari va institutsional omillar bilan bog'liqligi ilmiy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Avvalo, tadbirkorlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni Zoltan J. Acs [2],[11] va David B. Audretsch [3] tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Ularning fikricha, tadbirkorlik sektori tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilingan bo'lsa, iqtisodiyotda innovatsion faollik va raqobat kuchayadi. Bu esa yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga xizmat qiladi.

William J. Baumol [4] tadbirkorlik faoliyatining "samarali" va "samarasiz" turlarini ajratib, institutsional muhit tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko'ra, davlat siyosati tadbirkorlik resurslarini mahsuldor sohalarga yo'naltirishi lozim.

Institutsional yondashuv doirasida Douglass C. North [5] ishlari alohida ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida iqtisodiy institutlar tadbirkorlik faoliyatini

cheklovchi yoki ragʻbatlantiruvchi omil sifatida qaraladi. Demak, tadbirkorlik sektori tarkibiy oʻzgarishlari institutsional islohotlar bilan uzviy bogʻliq.

Kichik va oʻrta biznesning iqtisodiyotdagi roli Paul Reynolds [6] tomonidan oʻrganilgan boʻlib, u tadbirkorlik faoliyatining boshlangʻich bosqichlarini tahlil qilish orqali tarkibiy oʻzgarishlarni baholash metodologiyasini taklif etadi. Uning yondashuvi GEM (Global Entrepreneurship Monitor) maʼlumotlariga asoslanadi.

Tadbirkorlik va innovatsiyalar oʻrtasidagi bogʻliqlik Joseph Schumpeter [7] nazariyasida ilgari surilgan boʻlib, u “ijodiy vayrona qilish” konsepsiyasi orqali iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarni tushuntiradi. Bu nazariya hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Soʻnggi tadqiqotlarda tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini baholashda empirik va iqtisodiy-matematik usullar keng qoʻllanilmoqda. Masalan, Erkko Autio [8] tadqiqotlarida tadbirkorlik ekotizimlari va ularning tarkibiy elementlari oʻrtasidagi bogʻliqlik tahlil qilingan. U tadbirkorlik muhitini kompleks tizim sifatida baholashni taklif etadi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik sektori transformatsiyasi masalalari Carl Benedikt Frey [9] ishlarida oʻrganilgan. U raqamli texnologiyalar taʼsirida iqtisodiy tarkibning oʻzgarishi va yangi biznes modellarning shakllanishini tahlil qiladi.

Tadbirkorlikni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash va uning tarkibiy taʼsiri Ross Levine [10] tadqiqotlarida yoritilgan boʻlib, moliyaviy tizim rivojlangan sari tadbirkorlik faoliyati diversifikatsiyasi oshishi taʼkidlanadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Unda institutsional, innovatsion, moliyaviy va raqamli omillar uygʻunlashgan holda qaralishi lozim. Shuningdek, zamonaviy metodologiyalarda koʻp mezonli baholash usullari va iqtisodiy-matematik modellardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni ilmiy asosda oʻrganish uchun kompleks va koʻp bosqichli metodologik yondashuv qoʻllanildi. Tadqiqotning nazariy asosini tizimli, institutsional va funksional-strukturaviy yondashuvlar tashkil etadi. Tizimli yondashuv doirasida tadbirkorlik sektori yagona iqtisodiy tizim sifatida qaralib, uning tarkibiy elementlari (kichik, oʻrta va yirik biznes subyektlari, tarmoqlar va hududlar) oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik va taʼsir mexanizmlari tahlil qilindi.

Institutsional yondashuv orqali tadbirkorlik muhitini shakllantiruvchi omillar, jumladan, davlat siyosati, soliq tizimi, moliyaviy institutlar va huquqiy baza taʼsiri oʻrganildi. Bu orqali tadbirkorlik faoliyati tarkibiy jihatdan qaysi yoʻnalishlarda rivojlanayotgani va qanday institutsional cheklovlar mavjudligi aniqlandi. Funksional-strukturaviy tahlil esa tadbirkorlik sektorida qoʻshimcha qiymat yaratish jarayonlari va resurslar taqsimotini baholash imkonini berdi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini taʼminlash maqsadida milliy statistik maʼlumotlar va ilmiy manbalardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Metodologik nuqtai nazardan, tadbirkorlik sektori tuzilmasini takomillashtirish bir necha ilmiy yondashuvlarga tayanadi. Birinchi navbatda, tizimli yondashuv alohida ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tadbirkorlik sektori yagona tizim sifatida qaralib, uning barcha elementlari o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Masalan, kichik biznes subyektlari, o‘rta biznes va yirik korxonalar o‘rtasidagi munosabatlar zanjirli ta’sirni yuzaga keltiradi. Shu sababli, bir elementdagi o‘zgarish butun tizimga ta’sir ko‘rsatadi. Demak, tarkibiy tuzilmani takomillashtirishda har bir elementning o‘rni va ahamiyati hisobga olinishi lozim.

Ikkinchi muhim yondashuv - institutsional yondashuv bo‘lib, u tadbirkorlik muhitini shakllantiruvchi qonunchilik, me‘yoriy-huquqiy baza va institutlarning rolini o‘rganadi. Tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasining samaradorligi ko‘p jihatdan davlat siyosati va institutsional muhitga bog‘liq. Masalan, soliq siyosati, kreditlash shartlari, litsenziyalash tartiblari tadbirkorlik subyektlarining qaysi sohalarda faoliyat yuritishini belgilaydi. Shuning uchun metodologiyada institutsional omillarni inobatga olish muhim hisoblanadi.

Uchinchi yondashuv - funksional-strukturaviy tahlil bo‘lib, u tadbirkorlik sektoridagi funksiyalar va ularning tarkibiy elementlar bilan bog‘liqligini o‘rganadi. Bu yondashuv orqali iqtisodiyotda qaysi tarmoqlar yuqori qo‘shimcha qiymat yaratayotgani, qaysi sohalarda resurslar samarasiz ishlatilayotgani aniqlanadi. Natijada tarkibiy qayta qurish uchun asosli qarorlar qabul qilish imkoni paydo bo‘ladi.

1-jadval.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari [12]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar				
		2021	2022	2023	2024	2025
Sanoat mahsuloti	trln.so‘m	124,9	143,9	177,9	307,8	383,9
Investitsiyalar	trln.so‘m	109,2	127,6	176,6	265,7	362,9
Qurilish	trln.so‘m	77,9	93,6	176,0	194,5	230,9
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	trln.so‘m	308,8	350,2	411,8	454,9	495,4
Chakana savdo	trln.so‘m	186,8	229,2	287,1	345,4	400,5
Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari	trln.so‘m	231,5	394,2	378,0	477,9	595,1
Ekspart miqdori	trln.AQSH dollar	3,3	6,2	6,9	9,3	12,4
Import miqdori	trln.AQSH dollar	11,5	15,2	19,5	19,9	25,4
Band bo‘lganlar	mln.kishi	10,1	10,1	10,4	10,7	10,8

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2021-2025-yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barcha asosiy tarmoqlarda barqaror o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Ayniqsa, sanoat mahsuloti hajmi 124,9 trln so‘mdan 383,9 trln so‘mgacha, investitsiyalar 109,2 trln so‘mdan 362,9 trln so‘mgacha oshgani

tadbirkorlik sektorida tarkibiy o'zgarishlar faol kechayotganini anglatadi. Shu bilan birga, qurilish va xizmatlar sohasidagi o'sish yuqori bo'lib, xizmatlar hajmi 231,5 trln so'mdan 595,1 trln so'mgacha yetgani iqtisodiyotda servis sektori ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi va chakana savdo ko'rsatkichlari ham mutanosib o'sgan bo'lsa-da, eksport va import dinamikasida importning nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi (11,5 mlrd dollardan 25,4 mlrd dollargacha) tashqi iqtisodiy muvozanat masalalarini dolzarb qiladi. Bu holat tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasida yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Bandlik ko'rsatkichlarining nisbatan sekin o'sishi (10,1 mln kishidan 10,8 mln kishigacha) esa mehnat unumdorligini oshirish va yuqori texnologiyali sohalar ulushini kengaytirish zarurligini anglatadi. Ushbu tendensiyalardan kelib chiqib, tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda sanoat va xizmatlar o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlash, innovatsion va eksportbop faoliyat turlarini rag'batlantirish, shuningdek, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim. Tahlillar tadbirkorlik sektorida tarkibiy diversifikatsiya jarayonlari davom etayotganini ko'rsatib, uni yanada samarali boshqarish uchun institutsional va investitsion mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Qo'yidagi 2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021-2025-yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushida turlicha dinamika kuzatilgan bo'lib, bu tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasida sifat jihatdan o'zgarishlar kechayotganini anglatadi. Jumladan, yalpi ichki mahsulotdagi ulush 56,3 foizdan 52,2 foizga kamaygani tadbirkorlikning umumiy iqtisodiyotdagi nisbiy ulushi qisqarganini ko'rsatadi. Biroq bu holat salbiy tendensiya emas, balki yirik sanoat va kapital sig'imi yuqori tarmoqlarning tezroq rivojlanayotgani bilan izohlanishi mumkin.

2-jadval.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, foizda [12]

Iqtisodiyot tarmoqlari	Yillar					2025-yilni 2021-yilga nisbatan farqi (foiz punkt, +/-)
	2021	2022	2023	2024	2025	
Yalpi ichki mahsulot	56,3	54,3	53,8	53,5	52,2	-4,1
Sanoat	27,4	26,0	27,0	31,9	34,9	7,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	96,0	94,8	94,6	95,2	91,9	-4,1
Investitsiyalar	45,6	47,9	49,6	51,8	61,4	15,8
Qurilish	72,5	71,5	78,5	75,4	73,6	1,1
Bozor xizmatlari	51,7	49,4	48,1	56,2	56,7	5,0
Yuk tashish	42,9	47,4	51,8	51,2	52,4	9,5
Yo'lovchi tashish	92,7	92,4	93,1	92,2	90,6	-2,1
Eksport	20,0	31,2	27,9	34,1	36,6	16,6
Import	45,2	49,5	50,5	49,8	53,6	8,4
Bandlik	74,5	73,9	74,0	74,5	74,7	0,2

Shu bilan birga, sanoatda kichik biznes ulushining 27,4 foizdan 34,9 foizga (7,5 p.p.) oshishi tadbirkorlikning industrial sektorga chuqur kirib borayotganini anglatadi. Ayniqsa, investitsiyalar ulushining 45,6 foizdan 61,4 foizga (15,8 p.p.) oʻsishi tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligi keskin oshganini koʻrsatadi. Bu esa tarkibiy tuzilmani takomillashtirishda investitsiyalarni ragʻbatlantirish muhim ekanini tasdiqlaydi.

Qishloq xoʻjaligida ulushning 96,0 foizdan 91,9 foizga kamayishi esa iqtisodiyotda diversifikatsiya jarayonlari kuchayib, tadbirkorlikning boshqa tarmoqlarga ham keng tarqalayotganini koʻrsatadi. Shuningdek, eksport ulushining 20,0 foizdan 36,6 foizga (16,6 p.p.) oshishi tadbirkorlikning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayayotganini anglatadi.

Bandlikdagi ulushning deyarli oʻzgarishsizligi (74,5 foizdan 74,7 foizga) esa tadbirkorlik sektori hanz mehnat bozorida asosiy drayver ekanini koʻrsatadi. Umuman olganda, ushbu tendensiyalar tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda sanoatlashuv, eksportga yoʻnaltirish va investitsiya faolligini oshirish asosiy strategik yoʻnalishlar boʻlishi lozimligini koʻrsatadi.

Tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda innovatsion yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalar iqtisodiy oʻsishning asosiy manbai boʻlib, ular tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, yuqori texnologiyali va bilimga asoslangan sohalar ulushini oshirish strategik vazifa hisoblanadi. Bu esa tadbirkorlik sektorida tarkibiy oʻzgarishlarni talab etadi.

Hududiy jihatdan qaralganda, tadbirkorlik sektori tuzilmasini diversifikatsiya qilish ham muhim hisoblanadi. Koʻp hollarda iqtisodiy faollik poytaxt yoki yirik shaharlarda jamlangan boʻladi, bu esa hududlar oʻrtasida iqtisodiy nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun metodologiyada hududiy rivojlanish konsepsiyalari, klaster yondashuvi va lokal iqtisodiy tizimlarni rivojlantirish mexanizmlari muhim oʻrin tutadi.

Klaster yondashuvi tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda samarali instrument hisoblanadi. Ushbu yondashuvga koʻra, oʻzaro bogʻliq korxonalar, taʼlim muassasalari va ilmiy tashkilotlar muayyan hududda jamlanib, sinergetik samarani taʼminlaydi. Natijada innovatsiyalar tezroq joriy etiladi, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi va yangi ish oʻrinlari yaratiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik sektori tuzilmasini transformatsiya qilish yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron tijorat, fintex, raqamli xizmatlar kabi sohalarning rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatining yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Bu esa tarkibiy oʻzgarishlarni talab qiladi. Shu bois, metodologiyada raqamli transformatsiya omillarini hisobga olish muhimdir.

Shu bilan birga, tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kichik va oʻrta biznes subyektlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, venchur kapitalini rivojlantirish, mikromoliya institutlarini qoʻllab-quvvatlash orqali tarkibiy oʻzgarishlarni ragʻbatlantirish mumkin.

Metodologik jihatdan yana bir muhim masala - risklarni boshqarishdir. Tadbirkorlik sektoridagi tarkibiy o'zgarishlar muayyan risklar bilan bog'liq bo'lib, ularni baholash va boshqarish zarur. Bu borada zamonaviy risk-menejment usullaridan, jumladan, ssenariy tahlili, stress-testlash va modellashtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda davlatning roli ham katta. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan sanoat siyosati, soliq imtiyozlari, infratuzilmani rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari tarkibiy o'zgarishlarni tezlashtiradi. Shu bilan birga, davlat aralashuvi bozor mexanizmlarini buzmasligi, raqobat muhitini cheklamasligi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, u tizimli, institutsional va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirishni talab etadi. Samarali metodologiyani ishlab chiqish orqali iqtisodiyotda barqaror o'sishni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Shuning uchun mazkur masala ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish masalasi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish va global raqobatbardoshlikni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik sektori faqat miqdor jihatidan emas, balki uning tarkibiy mutanosibligi, sohalar kesimida diversifikatsiyasi va innovatsion yo'naltirilganligi bilan ham iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadi.

Metodologik jihatdan, tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish tizimli, institutsional va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirishni talab etadi. Ayniqsa, ko'p mezonli baholash usullari (Entropy, TOPSIS, DEA), iqtisodiy-matematik modellar va raqamli tahlil instrumentlaridan foydalanish tarkibiy o'zgarishlarni ilmiy asosda baholash imkonini beradi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonining aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini optimallashtirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlar muhim deb topildi:

- yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan va innovatsion sohalar ulushini oshirish;
- hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish orqali tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish;
- kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash;
- raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish;
- risk-menejment tizimlarini joriy etish orqali barqarorlikni ta'minlash.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, tadbirkorlik sektori tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish uzluksiz va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u davlat siyosati, bozor mexanizmlari va innovatsion muhitning o'zaro uyg'unligida amalga oshirilishi lozim. Samarali metodologiyani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali milliy

iqtisodiyotda barqaror o‘shishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-kichik-biznes-va-hususiy-tadbirkorlik-so-asini-rivozhlanish-zharayonlari>.
2. Acs, Z. J., & Audretsch, D. B. (2005). Entrepreneurship, innovation and technological change. *Foundations and Trends in Entrepreneurship*, 1(4), 149-195. <https://doi.org/10.1561/03000000004>.
3. Audretsch, D. B., & Keilbach, M. (2004). Entrepreneurship capital and economic performance. *Regional Studies*, 38(8), 949-959. <https://doi.org/10.1080/0034340042000280956>.
4. Baumol, W. J. (1990). Entrepreneurship: Productive, unproductive, and destructive. *Journal of Political Economy*, 98(5), 893-921. <https://doi.org/10.1086/261712>.
5. North, D. C. (1990). *Institutions, institutional change and economic performance*. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511808678>.
6. Reynolds, P. D., Hay, M., & Camp, S. M. (1999). *Global Entrepreneurship Monitor: 1999 Executive Report*. Kauffman Center for Entrepreneurial Leadership.
7. Schumpeter, J. A. (1934). *The theory of economic development*. Harvard University Press.
8. Autio, E., Kenney, M., Mustar, P., Siegel, D., & Wright, M. (2014). Entrepreneurial innovation: The importance of context. *Research Policy*, 43(7), 1097-1108. <https://doi.org/10.1016/j.respol.2014.01.015>.
9. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2017). The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation? *Technological Forecasting and Social Change*, 114, 254-280. <https://doi.org/10.1016/j.techfore.2016.08.019>.
10. Levine, R. (2005). Finance and growth: Theory and evidence. In *Handbook of Economic Growth* (Vol. 1, pp. 865-934). Elsevier. [https://doi.org/10.1016/S1574-0684\(05\)01012-9](https://doi.org/10.1016/S1574-0684(05)01012-9).
11. Acs, Z. J., Szerb, L., & Autio, E. (2017). *Global Entrepreneurship Index 2017*. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-3-319-63844-7>.
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-kichik-biznes-va-hususiy-tadbirkorlikni-davlat-tomonidan-llab-uvvatlash-mehanizmlari>.
13. Эргашходжаева Ш., Хакимов З. Тошкент вилояти имижини яратиш асосида инвестицион муҳит жозибадорлигини ошириш //хозяйство. - 2011. - №. 6. - С. 78.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**